



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№12
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 140 sahifa,
2-dekabr, 2025-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalar tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Woosyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Yangi O'zbekiston sharoitida ayollar ijtimoiy faolligini oshirishda psixologik motivatsiya va o'z-o'zini rivojlantirish strategiyalari	26
Xuseynova Abira Amanovna	
Pragmalinguodidactic Principles in Teaching English for Philologist Students and their Application in Intercultural Communication.....	31
Arzieva Bibi-Sanem Aynazarovna	
Metakognitiv ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan biologiya o'quv materiallarini loyihalash, joriy etish va samaradorligini baholash.....	35
Abdurasulova Gulrux Habibullayevna	
Oligofreniya holatida neyropsixologik tashxislar qo'llanilishining umumiy masalalari	40
Akramov Dostonbek Ikromjon o'g'li, Xojaliyeva Sarvinov Elyorjon qizi	
Oliy ta'lim muassasalari talabalarida kreativ kompetensiyani rivojlantirish pedagogik muammo sifatida ...	44
Asatova Dildora Aslamovna	
Ingliz tili o'qish ko'nikmalarini takomillashtirishda autentik manbalarning roli.....	49
Bekmuratova Nargiza Arislanbayevna	
Insuldan keyingi nutqni tiklashda logopedik rehabilitatsiya va nevrologik muolajalar integratsiyasi	52
Boltaboyeva Xurshida Sharofiddinovna	
The Concept of Symbols in Linguoculturology	56
Hamraqulova Gulandom Sodiq qizi	
Buyuk ipak yo'li xalqlari o'rtasidagi pedagogik va madaniy aloqalarning vujudga kelishi.....	59
Mirxalilova Nargiza Akbarovna	
Bo'lajak tarbiyachilarni bolalarni nutqini o'stirishga bo'lgan kasbiy-pedagogik tayyorgarligini o'stirish	63
Mitaliboyeva Dildora	
Koxlear implantli bolalarning eshituv-nutqiy faolligini oshirishda differensial yondashuv asosida korreksion-pedagogik ish	66
Nartayeva Shahnova Yulchibayevna	
Fasilitatsion yondashuv asosida kichik maktabgacha yoshdagi bolalarda adaptiv ko'nikmalarni rivojlantirishning psixologik-pedagogik mexanizmlari.....	71
Normatova Nilufar Komilovna	
Boshlang'ich sinflarda disgrafiyasi bo'lgan o'quvchilarda yozish kompetensiyalarini shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari (XIX–XXI asrlarda).....	76
Qaxxorova Saidaxon, Mamarajabova Zulfiya	
Raqamli texnologiyalar va onlayn platformalar orqali olimpiya ta'limini rivojlantirish: yoshlar orasida axloqiy va jismoniy madaniyatni oshirish	80
Qodirov Jurabek Mamatsimonovich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida sun'iy intellekt bilim va savodxonligini rivojlantiradigan innovatsion jismoniy-interaktiv o'yinlar: pedagogik model	83
Quvonova Nodirabegim Shavkat qizi	
"Sab'ay sayyor" asarida qo'llangan onomastik birliklar haqida mulohazalar	87
Gadayev Oybek Yaxshiboyevich, Ravshanova Sharbatoy Rahmatilla qizi	
Ijtimoiy tarmoq shifokorlarining masofaviy konsultatsiyalari shaxs psixikasi va salomatligiga ta'siri	91
Askarova Nargiza Abdivaliyevna, Ravshanova Zarnigor Daminovna	
Talabalar ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishda innovatsion ta'lim texnologiyalari va interfaol metodlardan foydalanish.....	95
Satvoldiyev Faxriddin Akbarali o'g'li	
Innovatsion ta'lim texnologiyalari orqali pedagoglarning kreativligini rivojlantirish	99
Saydullayeva Gulasal Umidjon qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalar motorikasini rivojlantirishning standart modeli	102
Sirojiddinova Xamidaxon Xasanboy qizi	
Bo'lajak o'qituvchilarning shaxslararo munosabat kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	106
Turg'unova Gulnoza Muhammadjonovna, Xodjiyeva Mahliyo	



Shaxsdagi mehnat motivatsiyasi samaradorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi korrelyatsion bog'liqliklar tahlili	109
Xusanov Samariddin Maxmadaminovich	
Auditoriyadan tashqari musiqiy mashg'ulotlarni art-terapiya yordamida tashkil etish asoslari	112
Yarashev Jo'rabek To'rayevich	
Формирование творческого мышления школьников на уроках музыки	117
Габдульманова Ильнура Минисламовна	
Теоретико-методологические основы коллаборативного обучения, кооперативных подходов и интерактивных педагогических методов	119
Жураева Мафтуна Бахтиёр кизи	
Педагогическое колесо как инструмент формирования цифровой компетентности будущих педагогов дошкольного образования.....	124
Уразова М. Б., Усманова У. Б.	
Особенности гражданского воспитания обучающихся в системе "школа–махалля" в Узбекистане ..	130
Хайдаров Шавкат Шамсиддин угли	
Педагогические условия формирования языковой грамотности у учащихся с тяжелыми нарушениями речи.....	135
Юсупова Зулайхо Бахром кизи	



TALABALAR ILMIY DUNYOQARASHINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION TA'LIM TEKNOLOGIYALARI VA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

Satvoldiyev Faxriddin Akbarali o'g'li

Namangan viloyati pedagogik mahorat markazi

Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar va tillarni o'qitish metodikasi kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta'lim tizimida talabalar ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishda innovatsion ta'lim texnologiyalari va interfaol metodlarning roli, imkoniyatlari hamda qo'llanilish strategiyalari tadqiq etiladi. Tadqiqot doirasida innovatsion ta'lim texnologiyalarining nazariy asoslari tahlil qilinib, ularning ilmiy tafakkurni shakllantirishdagi pedagogik potentsiali ochib beriladi. Maqolada muammoli o'qitish, loyihaviy faoliyat, keys-stadi, debat, aqliy hujum kabi interfaol metodlarning ilmiy dunyoqarash komponentlariga ta'sir mexanizmlari yoritiladi. Tadqiqot natijasida innovatsion texnologiyalar va interfaol metodlarni qo'llashning didaktik shartlari aniqlanadi, ularning samaradorligini ta'minlovchi pedagogik omillar asoslanadi hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi. Empirik ma'lumotlar tahlili innovatsion yondashuvlarning an'anaviy ta'lim usullariga nisbatan ilmiy dunyoqarashni rivojlantirishda sezilarli afzalliklarga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: innovatsion ta'lim texnologiyalari, interfaol metodlar, ilmiy dunyoqarash, muammoli o'qitish, loyihaviy faoliyat, keys-stadi, tanqidiy tafakkur.

Abstract: This article examines the role, possibilities and application strategies of innovative educational technologies and interactive methods in developing students' scientific worldview in the higher education system. Within the framework of the study, the theoretical foundations of innovative educational technologies are analyzed and their pedagogical potential in the formation of scientific thinking is revealed. The article highlights the mechanisms of influence of interactive methods such as problem-based learning, project activities, case studies, debates, brainstorming on the components of scientific worldview. As a result of the study, the didactic conditions for the use of innovative technologies and interactive methods are determined, the pedagogical factors ensuring their effectiveness are substantiated, and practical recommendations are developed. The analysis of empirical data confirms that innovative approaches have significant advantages in developing a scientific worldview over traditional educational methods.

Key words: innovative educational technologies, interactive methods, scientific worldview, problem-based learning, project activities, case studies, critical thinking.

Аннотация: В статье рассматриваются роль, возможности и стратегии применения инновационных образовательных технологий и интерактивных методов в формировании научного мировоззрения студентов в системе высшего образования. В рамках исследования анализируются теоретические основы инновационных образовательных технологий и раскрывается их педагогический потенциал в формировании научного мышления. В статье рассматриваются механизмы влияния интерактивных методов, таких как проблемное обучение, проектная деятельность, кейс-стади, дебаты, мозговой штурм, на компоненты научного мировоззрения. В результате исследования определяются дидактические условия применения инновационных технологий и интерактивных методов, обосновываются педагогические факторы, обеспечивающие их эффективность, и разрабатываются практические рекомендации. Анализ эмпирических данных подтверждает, что инновационные подходы обладают существенными преимуществами в формировании научного мировоззрения по сравнению с традиционными методами обучения.

Ключевые слова: инновационные образовательные технологии, интерактивные методы, научное мировоззрение, проблемное обучение, проектная деятельность, кейсы, критическое мышление.

KIRISH

Zamonaviy jamiyatning jadal rivojlanishi, ilmiy-texnik taraqqiyotning tezlashuvi va axborot oqimlarining ko'payishi ta'lim tizimi oldiga yangicha vazifalar qo'yimoqda. Bugungi kunda mutaxassis tayyorlash jarayonida nafaqat kasbiy bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, balki shaxsning ilmiy tafakkur uslubini, borliqni ilmiy asosda anglash qobiliyatini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ilmiy dunyoqarash shaxsning borliqqa, bilishga va o'z o'rniga bo'lgan munosabatlarining ilmiy asoslangan yaxlit tizimi sifatida ta'riflanar ekan, uning shakllanishi ta'lim jarayonining strategik maqsadlaridan biriga aylanadi. An'anaviy ta'lim usullari, asosan ma'ruza va reproduktiv mashqlar, ko'pincha talabalarining passiv bilim oluvchi sifatida qatnashishini nazarda tutadi. Bunday yondashuv bilimlarni uzatishda ma'lum darajada samarali bo'lsa-da, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish uchun yetarli emas. Ilmiy dunyoqarash bilimlarni oddiy eslab qolishdan farqli o'laroq, ularni chuqur anglash, tanqidiy baholash, turli vaziyatlarga ijodiy qo'llash qobiliyatini talab qiladi. Bunday murakkab shaxsiy sifatlarni shakllantirish esa talabaning faol, mustaqil, ijodiy bilish faoliyatini tashkil etuvchi innovatsion yondashuvlarni zarur qiladi. Innovatsion ta'lim texnologiyalari va interfaol metodlar aynan mana shu vazifani hal qilishga qaratilgan.^[1]

Ular ta'lim jarayonini tubdan o'zgartirib, talabani passiv tinglovchidan faol bilish sub'ektiga aylantiradi. Muammoli vaziyatlarni hal qilish, loyihalar ustida ishlash, munozaralar olib borish, hamkorlikda bilim qurish jarayonlarida talaba nafaqat ma'lumot oladi, balki ilmiy tafakkur ko'nikmalarini amaliy egallaydi, tanqidiy baholash qobiliyatini rivojlantiradi, ilmiy metodologiyani o'zlashtiradi. Bularning barchasi ilmiy dunyoqarashning muhim komponentlarini tashkil etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Innovatsion ta'lim texnologiyalari muammosi pedagogika fanida keng o'rganilgan bo'lib, bu sohadagi tadqiqotlar XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab jadal rivojlanmoqda. Innovatsiya tushunchasining ta'limga tatbiqi dastlab iqtisodiyot va menejment sohasidan o'tkazilgan bo'lib, Jozef Shumpeterning innovatsiya nazariyasi bu jarayonning nazariy asosini tashkil etdi. Ta'lim kontekstida innovatsiya yangi g'oyalar, usullar, texnologiyalar va yondashuvlarni joriy etish orqali ta'lim jarayonining sifatini oshirish sifatida talqin qilinadi. V.A. Slastenin va L.S. Podimovaning tadqiqotlari pedagogik innovatikaning nazariy asoslarini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Ularning ta'kidlashicha, pedagogik innovatsiya nafaqat yangi usullarni joriy etish, balki ta'lim paradigma-sining o'zgarishi, o'qituvchi va talaba munosabatlarining qayta qurilishi bilan bog'liq kompleks jarayondir.

M.V. Klarin innovatsion o'qitish modellarini tahlil qilib, ularning an'anaviy ta'limdan farqli o'laroq, talabaning faol bilish pozitsiyasini shakllantirishga yo'naltirilganligini ko'rsatdi. Interfaol metodlar pedagogikasi ham boy nazariy merosga ega. "Interaktiv" atamasi o'zaro ta'sir, o'zaro aloqa ma'nolarini anglatib, ta'lim kontekstida o'qituvchi va talaba, talabalar o'rtasida faol muloqot va hamkorlikni nazarda tutadi.^[2]

S.S. Kashlev interfaol ta'limning mohiyatini ochib berib, uni ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari o'zaro ta'sirga kirishadigan, birgalikda bilim quradigan, tajriba almashuvchi va yangi g'oyalar ishlab chiqadigan ta'lim shakli sifatida ta'rifladi.^[3]

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning metodologik asosini bir necha yondashuv tashkil etadi.

Birinchidan, tizimli yondashuv innovatsion ta'lim texnologiyalari va interfaol metodlarni ilmiy dunyoqarash rivojlantirish jarayonining o'zaro bog'liq elementlari sifatida ko'rib chiqish imkonini beradi. Bu yondashuv doirasida turli texnologiyalar va metodlarning o'zaro aloqasi, ularning umumiy maqsadga – ilmiy dunyoqarash rivojlantirishga birgalikda xizmat qilishi tahlil qilinadi. Tizimli yondashuv, shuningdek, ta'lim jarayonining boshqa komponentlari – mazmun, tashkiliy shakllar, baholash tizimlari bilan innovatsion yondashuvlar integratsiyasini o'rganish imkonini beradi.

Ikkinchidan, faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv ilmiy dunyoqarashning talabaning faol bilish faoliyati jarayonida shakllanishini ta'kidlaydi. Bu yondashuvga ko'ra, innovatsion texnologiyalar va interfaol metodlarning samaradorligi ular qanday faoliyat turlarini tashkil etishi, talabani qanday kognitiv operatsiyalarga jalb etishi bilan belgilanadi. Faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv har bir texnologiya va metodning ta'lim faoliyati xarakteristikalarini tahlil qilish, ularning ilmiy tafakkur shakllanishiga ta'sir mexanizmlarini aniqlash uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.^[4]

Uchinchidan, konstruktivistik yondashuv bilimning tayyor holda uzatilmasdan, talaba tomonidan faol qurilishini ta'kidlaydi. Bu yondashuv innovatsion texnologiyalar va interfaol metodlarning epistemologik asoslarini tushunish uchun muhim ahamiyatga ega. Konstruktivizm nuqtai nazaridan, ilmiy dunyoqarash tashqaridan singdirilmaydi, balki talabaning shaxsiy tajribasi, faol izlanishi va refleksiya natijasida shakllanadi.



TAHLILLAR VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari innovatsion ta'lim texnologiyalari va interfaol metodlarning ilmiy dunyoqarashni rivojlantirishdagi rolini ko'p qirrali ochib berish imkonini berdi. Tahlilni innovatsion yondashuvlarning ilmiy dunyoqarash komponentlariga ta'sir mexanizmlarini aniqlashdan boshlash maqsadga muvofiq. Innovatsion ta'lim texnologiyalari va interfaol metodlarning ilmiy dunyoqarashga ta'siri bir necha mexanizm orqali amalga oshadi.

Birinchi mexanizm kognitiv faollashtirish bilan bog'liq. An'anaviy ta'limda talaba ko'pincha passiv qabul qiluvchi rolda bo'lib, uning kognitiv faolligi nisbatan past darajada qoladi. Innovatsion texnologiyalar va interfaol metodlar esa talabani faol fikrlashga, muammolarni hal qilishga, qaror qabul qilishga undaydi. Bu faol kognitiv ishtirok ilmiy tafakkur ko'nikmalarining amaliy shakllanishiga, bilimlarning chuqur o'zlashtirilishiga olib keladi. Masalan, muammoli vaziyatni hal qilishda talaba gipotezalar qo'yish, ularni tekshirish, dalillarni tahlil qilish jarayonlarini boshdan kechiradi, bu esa ilmiy metodologiyani amaliy egallash imkonini beradi.

Ikkinchi mexanizm ijtimoiy konstruksiya bilan bog'liq. Interfaol metodlarning aksariyati guruhviy ishlashni, hamkorlikda bilim qurishni nazarda tutadi. Bu jarayonda talabalar turli fikrlar bilan tanishadi, o'z pozitsiyasini himoya qiladi, boshqalar dalillarini baholaydi.^[5] Ijtimoiy muloqot orqali individual tushunchalar sinovdan o'tadi, aniqlanadi va chuqurlashadi. Vigotskiyning ijtimoiy-madaniy nazariyasiga ko'ra, yuqori psixik funktsiyalar, jumladan ilmiy tafakkur, dastlab interpersonal darajada shakllanib, keyin intrapsixik darajaga o'tadi. Interfaol metodlar aynan shu mexanizmni faollashtiradi.

Uchinchi mexanizm refleksiya bilan bog'liq. Innovatsion texnologiyalar ko'pincha talabadan o'z faoliyatini, o'ylash jarayonini tahlil qilishni talab qiladi. Bu metakognitiv refleksiya talabaning o'z bilish strategiyalarini anglashi, ularni optimallashtirishiga olib keladi. Ilmiy dunyoqarash kontekstida refleksiya talabaning o'z epistemologik pozitsiyasini anglashi, ilmiy bilim tabiatini tushunishiga xizmat qiladi.

To'rtinchi mexanizm emotsional jalb etilganlik bilan bog'liq. Innovatsion texnologiyalar va interfaol metodlar ko'pincha talabada qiziqish, hayajon, erishish his-tuyg'ularini uyg'otadi. Bu ijobiy emotsional tajriba motivatsiyani oshiradi, ilmiy bilishga ijobiy munosabatni shakllantiradi. Ilmiy dunyoqarashning aksiologik komponenti, ya'ni ilmiy bilimga qiymat sifatida munosabat, aynan shu emotsional jalb etilganlik orqali shakllanadi.^[6] Endi konkret innovatsion texnologiyalar va interfaol metodlarning ilmiy dunyoqarashni rivojlantirishdagi rolini tahlil qilamiz. Muammoli o'qitish texnologiyasi ilmiy dunyoqarashni rivojlantirishda markaziy o'rin tutadi. Muammoli vaziyat talabada kognitiv ziddiyat hosil qilib, uni faol izlanishga undaydi. Bu jarayonda talaba ilmiy bilishning asosiy bosqichlarini – muammoni aniqlash, gipoteza qo'yish, uni tekshirish, xulosalar chiqarish – amaliy boshdan kechiradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, muammoli o'qitish ayniqsa ilmiy dunyoqarashning metodologik va tanqidiy komponentlarini rivojlantirishda samarali. Muammoli vaziyatlarni hal qilish jarayonida talaba ilmiy usulni egallaydi, dalillarni baholash va asoslangan xulosalar chiqarish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Muammoli o'qitishning samaradorligi muammoli vaziyatlarning sifatiga, ularning talabalar tayyorgarlik darajasiga muvofiq-ligiga bog'liq. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, haddan tashqari murakkab muammolar talabada frustratsiya hosil qilishi mumkin, haddan tashqari oddiy muammolar esa kognitiv faollashtirishni ta'minlamaydi. Optimal murakkablik darajasidagi muammolar talabani "yaqin rivojlanish zonasi"da ishlashga undab, maksimal rivojlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi. Loyihaviy faoliyat texnologiyasi ilmiy dunyoqarashni rivojlantirishning yana bir samarali vositasi hisoblanadi. Loyiha ustida ishlash jarayonida talaba haqiqiy muammoni hal qilishga yo'naltiriladi, bu esa ilmiy bilishning amaliy ahamiyatini anglash imkonini beradi. Loyihaviy faoliyat talabaning mustaqil izlanish qobiliyatini, ma'lumotlar bilan ishlash ko'nikmalarini, natijalarni taqdim etish malakalarini rivojlantiradi. Tadqiqot natijalari loyihaviy o'qitishning ilmiy dunyoqarashning pragmatik va integrativ komponentlarini rivojlantirishda ayniqsa samarali ekanligini ko'rsatdi. Loyiha jarayonida talaba turli manba bilimlarini birlashtirish, ularni amaliy maqsadlarga yo'naltirish zaruratiga duch keladi.^[7]

Keys-stadi metodi ilmiy dunyoqarashni rivojlantirishda o'ziga xos o'rin tutadi. Bu metod talabani haqiqiy vaziyatlarni tahlil qilishga, turli omillarni hisobga olgan holda qaror qabul qilishga o'rgatadi. Keys tahlili analitik tafakkurni, muammoning turli jihatlarini ko'rish qobiliyatini rivojlantiradi. Tadqiqot natijalari keys-stadi metodi-ni ilmiy dunyoqarashning tanqidiy va analitik komponentlarini rivojlantirishda samarali ekanligini ko'rsatdi. Keys tahlili jarayonida talaba turli ma'lumotlarni baholash, ularning ishonchlilikini aniqlash, asoslangan xulosalar chiqarish ko'nikmalarini egallaydi. Debat va munozara metodlari ilmiy dunyoqarashning argumentatsion komponentini rivojlantirishda alohida ahamiyatga ega. Munozara jarayonida talaba o'z pozitsiyasini shakllantirish, uni dalillar bilan asoslash, raqib dalillarini tanqidiy baholash ko'nikmalarini egallaydi.

Tadqiqot natijalari debatning ilmiy munozara madaniyatini, argumentlash ko'nikmalarini rivojlantirishda yuqori samaradorligini ko'rsatdi. Debat jarayonida talaba ilmiy masalalar bo'yicha turli pozitsiyalar mavjudligini ang-laydi, bu esa ilmiy bilimning pluralistik tabiatini tushunishga yordam beradi. Debat metodining samarador-ligi mavzu tanlovi, munozara qoidalari va jarayonni boshqarish bilan bog'liq. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, ilmiy jihatdan munozarali, lekin haddan tashqari siyosiyashtirilgan mavzular eng samarali. Shuningdek, aniq

qoidalar va strukturalangan format talabalarning argumentatsiya sifatini oshiradi, emotsional bahslardan ilmiy munozaraga o'tishni ta'minlaydi.^[8]

Aqliy hujum texnikasi ilmiy tafakkurning ijodiy komponentini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Bu metod talabani erkin fikrlash, nostandart g'oyalar ishlab chiqish, ijodiy yondashish qobiliyatlarini faollashtiradi. Tadqiqot natijalari aqliy hujumning divergent tafakkurni, ko'p variantli yechimlar izlash qobiliyatini rivojlantirishda samarali ekanligini ko'rsatdi. Ilmiy dunyoqarash kontekstida bu ijodiy komponent yangi gipotezalar qo'yish, nostandart yondashuvlar izlash qobiliyatini shakllantiradi.

Tadqiqot doirasida turli innovatsion texnologiyalar va interfaol metodlarning ilmiy dunyoqarash komponentlariga differensial ta'siri aniqlandi. Kognitiv komponent, ya'ni ilmiy bilimlar tizimini egallash, barcha o'rganilgan yondashuvlarda rivojlanadi, lekin muammoli o'qitish va keys-stadi bunda ayniqsa samarali. Epistemologik komponent, ya'ni ilmiy bilim tabiatini anglash, debat va loyihaviy faoliyat orqali yaxshi rivojlanadi. Metodologik komponent, ya'ni ilmiy usullarni egallash, muammoli o'qitish va tadqiqot loyihalarida eng yaxshi shakllanadi.

Tanqidiy komponent, ya'ni dalillarni baholash qobiliyati, keys-stadi va debat metodlarida ko'proq rivojlanadi. Aksiologik komponent, ya'ni ilmiy bilimga qiymat sifatida munosabat, loyihaviy faoliyat va ijtimoiy ahamiyatga ega muammolar ustida ishlashda shakllanadi.^[9] Pedagogik eksperiment natijalari innovatsion texnologiyalar va interfaol metodlarning ilmiy dunyoqarashni rivojlantirishdagi samaradorligini statistik jihatdan tasdiqladi. Tajriba guruhi talabalarining ilmiy dunyoqarash ko'rsatkichlari eksperiment yakunida nazorat guruhi ko'rsatkichlaridan barcha komponentlar bo'yicha yuqori bo'ldi. Ayniqsa sezilarli farq metodologik va tanqidiy komponentlarda kuzatildi, bu innovatsion yondashuvlarning aynan ilmiy tafakkur ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali ekanligini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari innovatsion texnologiyalar va interfaol metodlarni optimal kombinatsiyalash strategiyalarini ishlab chiqish imkonini berdi. Turli texnologiyalar va metodlar o'zaro to'ldiruvchi tarzda qo'llanilganda maksimal samaradorlikka erishiladi. Masalan, mavzuni muammoli o'qitish orqali kirish talabalarning kognitiv faolligini oshiradi, keyin keys-stadi orqali amaliy vaziyatni tahlil qilish bilimlarni chuqurlashtirishga xizmat qiladi, debat orqali turli pozitsiyalarni muhokama qilish argumentatsiya ko'nikmalarini rivojlantiradi va nihoyat, loyihaviy faoliyat orqali olingan bilimlarni amaliy tatbiq etish integratsiya va transferni ta'minlaydi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari innovatsion ta'lim texnologiyalari va interfaol metodlarning talabalar ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishda muhim pedagogik potentsialga ega ekanligini tasdiqladi. Muammoli o'qitish, loyihaviy faoliyat, keys-stadi, debat, aqliy hujum kabi yondashuvlar ilmiy dunyoqarashning turli komponentlariga samarali ta'sir ko'rsatadi. Bu ta'sir kognitiv faollashtirish, ijtimoiy konstruksiya, refleksiya va emotsional jalb etilganlik mexanizmlari orqali amalga oshadi. Tadqiqot turli innovatsion texnologiyalar va interfaol metodlarning ilmiy dunyoqarash komponentlariga differensial ta'sirini aniqladi. Muammoli o'qitish va keys-stadi kognitiv va metodologik komponentlarni, debat va munozara argumentatsion va tanqidiy komponentlarni, loyihaviy faoliyat pragmatik va integrativ komponentlarni, aqliy hujum ijodiy komponentni rivojlantirishda ayniqsa samarali ekanligi aniqlandi.

Bu differensial ta'sirni hisobga olgan holda innovatsion yondashuvlarni optimal kombinatsiyalash ilmiy dunyoqarashning muvozanatli rivojlanishini ta'minlaydi. Innovatsion texnologiyalar va interfaol metodlarni samarali qo'llash bir qator pedagogik shartlarni talab qiladi. O'qituvchining innovatsion faoliyatga tayyorligi, talabalarining yangi ta'lim shakllari uchun tayyorlanganligi, ta'lim muhitining moslashtirilganligi, baholash tizimining muvofiqligi va o'quv dasturi bilan integratsiyalanganligi asosiy shartlar sifatida aniqlandi. Bu shartlarning bajarilishi innovatsion yondashuvlarning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Beane J.A. Curriculum Integration: Designing the Core of Democratic Education. – New York: Teachers College Press, 1997. – 152 p.
2. Driver R., Asoko H., Leach J., Mortimer E., Scott P. Constructing Scientific Knowledge in the Classroom // Educational Researcher. – 1994. – Vol. 23(7). – P. 5–12.
3. Inoyatov U.I. Oliy ta'limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Fan, 2016. – 224 b.
4. Kashlev S.S. Interaktivnye metody obucheniya. – Minsk: Tetra Systems, 2013. – 224 s.
5. Kilpatrick W.H. The Project Method // Teachers College Record. – 1918. – Vol. 19. – P. 319–335.
6. Klarin M.V. Innovatsii v obuchenii: metafory i modeli. – Moskva: Nauka, 1997. – 223 s.
7. Kuhn D. The Skills of Argument. – Cambridge: Cambridge University Press, 1991. – 336 p.
8. Lerner I.Ya. Problemnoye obucheniye. – Moskva: Znaniye, 1974. – 64 s.
9. Matyushkin A.M. Problemnyye situatsii v myshlenii i obuchenii. – Moskva: Pedagogika, 1972. – 208 s.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.